

O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATI DAHOLARI*Boboqulova Dilnoza**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**Urganch filiali 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: O'zbek milliy raqs san'atining tez va salmoqli rivojlanishida, dunyo xalqlariga raqslarimizning naqadar jozibali va maftunkorligini namoyish etishda ustoz san'atkorlar, ya'ni o'zbek milliy raqs san'atining daholari: Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Roviya Atajanova, Gavxar Matyoqubova va boshqa ko'plab raqs ustalarining xizmati katta. Maqolada o'zbek milliy raqs san'ati rivojlanishida o'z hissasini qo'shgan ushbu ustoz san'atkorlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z: *Tarix, qadriyat, "Katta o'yin", "Gul o'yin", "Pilla", "Sadr", "Zang"*
Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov

Аннотация: Мастера-артисты, т.е. гении узбекского национального танцевального искусства, в стремительном и значительном развитии узбекского национального танцевального искусства, в показе народам мира того, насколько привлекательны и очаровательны наши танцы: Уста Олим Комилов, Тамарахоним, Мукаррама Тург'унбоева Большую услугу оказывают Исохор Акилов, Кундуз Миркаримова, Розия Каримова, Гавхар Рахимова, Ровиа Атаджанова, Гавхар Матёкубова и многие другие мастера танцев. В статье рассказывается об этих мастерах-исполнителях, внесших вклад в развитие национального танцевального искусства узбеков.

Ключевые слова: История, значение, «**Катта уйин**», «Гуль ойин», «Пилла», «Садр», «Занг» Уста Олим Комилов, Тамарахоним, Мукаррама Тургунбаева, Исохор Акилов

Abstract: Master artists, i.e. geniuses of Uzbek national dance art, in the rapid and significant development of Uzbek national dance art, in showing the peoples of the world how attractive and charming our dances are: Usta Olim Komilov, Tamarakhonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isokhor Aqilov, Kunduz Mirkarimova, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Rovia Atajanova, Gavhar Matyokubova and many other dance masters are of great service. The article talks about these master artists who contributed to the development of Uzbek national dance art.

Key words: History, meaning, "Katta uyin", "Gul oyin", "Pilla", "Sadr", "Zang"
 Usta Olim Komilov, Tamarahonim, Mukarrama Turgunbaeva, Isokhor Akilov

O'zbek milliy raqs san'ati o'zining qadimiy va boy tarixiga ega bo'lib, uzoq yillar davomida rivojlanib, muayyan bosqich va muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda.

Avvalo, shuni aytish kerakki, o'zbek milliy raqs san'atining tez va salmoqli rivojlanishida, dunyo xalqlariga raqslarimizning naqadar jozibali va maftunkorligini namoyish etishda ustoz san'atkorlar, ya'ni o'zbek milliy raqs san'atining daholari: Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Roviya Atajanova, Gavxar Matyoqubova va boshqa ko'plab raqs ustalarining, havaskor va ko'ngilli raqqos hamda raqqosalarning san'at yo'lidagi ijodiy mehnatlari, yaratgan darslik va qo'lyozmalari, ular yetishtirgan shogirdlarning barqaror ijodiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zining takrorlanmas iste'dodi, san'at yo'lidagi fidokorona mehnatlari, beqiyos izlanishlari bilan raqs san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan ustozlardan biri bu -usta Olim Komilovdir. Uning ijodiy faoliyati, o'zbek milliy raqs san'ati rivojida juda muhim va tarixiy ahamiyatga egadir.

Usta Olim Komilov 1875-yilda Marg'ilonda to'quvchi kosib oilasida tavallud topgan. U yoshligidan otasidan yetim qolib, o'n yoshlik chog'ida aravasoqlik ustoxonasiga ishga kirishga majbur bo'ladi. "Bola o'zining birdan-bir quvonchi bo'lgan musiqani to'ylarga yashirin borib eshitar edi. Olimjon doiraning aniq va ifodali usullarini juda yaxshi ko'rar edi. U ishidan bir oz bo'shagan vaqtlarida, xotirasida qolgan usullarni chalishga urinardi. Shu sababli ayollar orasida tanilgan yallachi Salom xolaning diqqatini o'ziga tortdi. Yallachi bolani musiqaga, ayniqsa doiraga bo'lgan havasini ko'rib, o'zi bilan to'ylarga olib boradi. Shunday qilib u asta-sekin musiqachi va raqqosalar ishtirok etadigan kechalarda doira chala boshlaydi.

Mashhur doirachi Masaid ota yigitchadagi qobiliyatni ko'rgandan so'ng unga o'z san'tini o'rgatadi. Usta olim ko'p raqslarni bilardi,-deydi Tamaraxonim,-uning chaqqon barmoqlari hamma unutgan xalq usullarini chalardi. Ansamblning juda katta vazifalarini amalga oshirishi kerak bo'lgan musiqachi xuddi shu kishi edi"¹.U doira sirlarini puxta o'zlashtirib, Marg'ilonda doirachi sifatida tanila boshlar ekan, xalq uni "Usta Olim" deb ataydi. Yillar davomida san'atdagi tajribasi ortib borgan Usta Olim Komilov keyinchalik o'zi yaratgan doira usullariga raqslar sahnalashtira boshladi. 1926-yilda Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligida tashkil etilgan folklor etnografik truppaga qabul qilinadi va shu yillardan boshlab "Sharqning birinchi qaldirg'ochi", betakror raqqosa – Tamaraxonim bilan ijodiy hamkorlik yillari boshlanadi.

1931-1934-yillar ichida xalq yaratgan, lekin unutilib borayotgan usullarni to'playdi. U bu ishda o'zining sevimli ustozlari Masaid ota va Yusufjon Qiziqdan yordam oladi. usta Olim Komilov Tamaraxonim bilan ijodiy hamkorlikda "Zang", "Gul o'yini", "Sadir" kabi yangi o'zbek raqslarini yaratgan.

Birgalikdagi faoliyatlari davomida ular, 120 ta usuldan tashkil topgan oyoq-qo'l harakatlari darsligini yaratdilar, "Katta o'yin", "Gul o'yin", "Pilla", "Sadr", "Zang"

¹ O'zbek mumtoz musiqasi (classicmusic.uz)

kabi qadimiy raqslarni sahnalashtirib, ularning ba'zilarini raqqosalar dastasi ijrosiga moslashtirdilar. O'zbek milliy raqs san'atining gultoji bo'lgan – “Munojot”, “Dilxiroj”, “Qari navo” kabi raqslar ham ularning izlanishlarinatisida yangicha talqin topgan. Ular nafaqat mamlakatimizda, balki Moskva, Sank-Peterburg, Baku, Volga bo'yi shaharlarida va jahonning ko'plab mashhur mamlakatlarida bo'lib, o'zbek milliy raqs san'atini dunyoga tanitishda ulkan hissa qo'shdilar. 1930-yilda Moskvada o'tkazilgan san'at olimpiadasida ishtirok etishdi va ijro etgan laparlari bilan tomoshabinlarni lol qoldirdilar. 1932-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan musiqa sohasidagi xizmati uchun unga mehnat qahramoni degan unvon beriladi. 1935-yilda Londonda bo'lib o'tgan Xalqaro raqslar festivalida o'zbek xalqining ajoyib raqslari Usta Olim, Tamaraxonim, Abduqodir Ismoilov va To'xtasin Jalilovlar tomonidan namoyish qilindi va besh oltin medalning birini Usta Olim qo'lga kiritadi. Angliyada Usta Olim Komilovning mahoratini ko'rgan Buyuk Britaniya qirolichasi Mariya Lojalon unga *“birgina doira sozi bilan butun orkestrga teng usul va ohanglar yarata olgan mo'jizakor – virtuoz san'atkor!”* —deb ta'rif beradi. Uning panjalarini esa gipsga nusxa olib, London muzeyiga qo'yishga farmon beradi. Bu panjalar nusxasi hozirgi kungacha London muzeyida saqlanmoqda.

Tamaraxonim (haqiqiy ismi – Tamara Artyomovna Petrosyan) 1906-yil 29-martda Turkiston o'lkasining Gorchakovo bekatiga (hozirgi Marg'ilon shahri) surgun qilingan Anna va Artyom Petrosyanlarning oilasida dunyoga kelgan. O'zbek mahallada ulg'ayib, qoshi-u ko'zi qop-qora sho'x-shodon mahalliy bolakaylardan qolishmadigan qizaloq Mahallasida artistlar truppasi paydo bo'lgach san'atga mehr qo'yadi. Tamarani ko'zboylag'ichlar, dorbozlar va raqqosalar o'ziga sehraib qo'ydi. Uyda u ko'rgan harakatlarini beixtiyor takrorlaydi. Borgan sayin uning harakatlari ildamroq bo'lib, olti yoshga kirganda yaqinlarining qarshisida raqsga tushib, tahsinlarga sazovor bo'ladi. Tamaraxonim Turkiston (hozirgi O'zbekiston) Respublikasining birinchi xalq ashulachisi Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligida 1922-yili birgina ayol bo'lib ansamblga kirdi. Hali ancha yosh bo'lgan Tamaraxonim vokal, raqs va musiqa san'atining yirik ustalari Qori Yoqubov, doirachi sozanda, baletmeyster Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, To'xtasin Jalilov, Jo'raxon Sultonov, Xojisiddiq Islomov kabi ajoyib san'atkorlardan kun va soat sayin ta'lim oldi. Uning professional mahorati o'sgan sari uning konsert repertuarlari ham boyib bordi. 1924-yildayoq yosh o'zbek raqqosasining Sharq xalqlari Kommunistik universitetining kechasida qilgan chiqishini ko'rgan Anatoliy Vasilevich Lunacharskiy Tamara Xonimni birinchi “Sharq qaldirg'ochi” deb atagan. Ana shu “qaldirg'och” o'zining haqiqatdan ham chaqqonlik bilan qilgan zo'r mehnati tufayli o'zbek raqs san'atini yanada gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shgan ustoz sanatkordir.

O'zbek milliy raqs san'atida o'ziga xos o'ringa ega ustozlardan yana biri bu SSSR xalq artisti, O'zbekistonning atoqli raqqosasi, Davlat mukofoti laureati,

baletmeyster, ommaviy o'zbek sahna raqsi tashkilotchisi Mukarram Turg'unboyevadir.

Mukarram Turg'unboyeva 1913-yilda tavallud topgan. 1927-yilda o'rta maktabni bitirib, pedagogika texnikumiga o'qishga kirgan, 1929-yil esa ham aktrisa, ham O'zbek Davlat musiqali teatr studiyasi talabasiga aylanadi, umrining qolgan yillarini san'atga bag'ishlaydi. 1929-yildan 1933-yilgacha musiqali teatr studiyasida milliy raqsning atoqli pedagogi Usta Olim Komilov, mohir raqqos va artist Yusupjon Qiziq Shakarjonovlardan mumtoz raqs qonun-qoidalari, milliy-sahna va estrada raqsi bo'yicha keng bilimlarni egallagan Tamaraxonim kabi ustozlardan saboq olgan. Mahoratli bilimlar majmui Mukarramaga milliy raqs harakatlarini o'rganib, nafas olish usullari, mushak-bo'g'imlarning ishlashi kabi ijodiy jarayonning barcha tayyorlov holatlarini yashirishni o'rgandiki, tomoshabinlar ham tana harakatini ko'rmay, faqat qalb harakatlanishini qabul qilishardi.

1929-yil Mukarram Turg'unboyeva musiqali teatr artisti Xoldorov Nizom Xoldorovichga turmushga chiqdi, 1934-yil esa ularning farzandi Xoldorov Telman Nizomovich dunyoga keldi.

Mukarram Turg'unboyeva o'zbek xoreografiyasining oltin fondiga kiritilgan "Tanovar", "Katta o'yin", "Jonon", "Pilla", "Paxta" kabi o'zbek milliy raqsining asoschisi va ijrochisi hisoblanadi. U 1957-yilda "Bahor" milliy raqs ansamblini yaratadi. 1960-yilda Mukarram Turg'unboyeva yaratgan "Bahor" milliy raqs ansambli O'zbekiston Davlat milliy raqs ansambliga aylantiriladi.

Mukarram Turg'unboyeva uzoq yillar O'zbek balet maktabining mohir pedagogi sifatida faoliyat yuritib, ko'plab shogirdlar chiqaradi. Uning shogirdlari orasida G.Izmaylova, K.Mirkarimova, Gulnora Mavayeva, Ra'no Nizomova, Valentina Romanova, Tamara Yunusova, Ravshanoy Sharipova, Ma'mura Ergasheva, Nasiba Madrahimova, O'g'iloy Muhamedova kabi yetuk san'atkorlar vujudga kelgan. Mukarram Turg'unboyeva 1978-yil 26-noyabr kuni vafot etgan. Toshkent shahridagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan.

O'zbek milliy raqs san'atining yana bir namoyondasi O'zbekiston SSR xalq artisti, Hamza nomidagi O'zbekiston SSR Davlat mukofoti laureati, ko'plab shogirdlarning sevimli ustози Isohor Oqilovdir

Isohor Xaimovich Oqilov 1914-yili Samarqandda tug'ilgan va shu yerda yeti yillik maktabini tamomlab, turli xil yarim-professional truppalarga katta ishtiyoq bilan qatnasha boshlagan. Isohor Oqilovning san'atga havasi juda zo'r bo'lgan, shu sababli u musiqa va xoreografiya ilmiy tekshirish instituti qoshidagi o'quv guruhiga o'qishga kiradi. Bu yerda u o'zbek musiqa san'atining mashhur ustalari rahbarligida doira, gijjak va skripka chalishni o'rganadi. 1926-yilning kuzida Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Gavhar Petrosyanlar O'zbek Davlat etnografik ansambli tuzishgandi. Bu ansambl 1929 yil 21 aprelidan boshlab eksperimental musiqali dramatic teatriga aylantirildi, mazkur

yangi teatrdagi 15 kishilik o'zbek cholg'u asboblari ansambli, Usta Olim. Yusuf qiziq, Ahmadjon Umrzoqov, Nizom Haydarov, Po'lat Rahimov, Boborahim Mirzayev, Rahimberdi Bobojonov, Zuhur Qobulov. Qodir Hamdamov, Usta Olimning xotini – Begimxon Yo'ldoshxo'jayeva, uning singlisi Nurxon, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Halima Rahimova va boshqalar ishtirok etardilar.

Teatr huzurida tashkil qilingan balet studiyasida Isohor Oqilov A.K. Bekdan klassik balet bo'yicha saboq oladi. dastlab trenaj mashqlarda qatnasharkan, so'ngra A.M. Chetvertakovning "Qizil gul, oq gul" nomli bir pardali baletida yigit raqsini, zamonaviy mavzular asosida yaratilgan "O'roq va bolg'a", "Budyoniycha" raqsini ham ijro etadi. Bu xildagi zamonaviy yangi mavzudagi raqs o'sha yillarda qadimgi xalq kuylari asosida, masalan, "O'roq va bolg'a" raqsi Buxoro xalq kuylaridan hisoblangan «Baljuvon» kuyi asosida sahnalashtirilgan. Isohor Oqilovning eksperimental teatrdagi ishtirok etishi ijobiy natijalar beradi. U endi klassik balet harakatlarini professional ustozlardan o'rganar va xalq raqsini ijro etganda mana shu klassik balet raqs harakatlarini mohirona qo'llagan, xalq orasida o'ynaladigan raqslarni yangi-yangi elementlar bilan boyitgan, ayni vaqtda o'zbek va tojik xalq raqsining xilma-xil turlarini, yangi shakl va harakatlarini ustozlardan o'rganish hamda ularni ijro etishda davom ettirgan. Isohor Oqilov navqironligida ijro etgan, biri ikkinchisiga o'xshamagan raqs o'zining tabiiyligi, milliyliigi, jozibadorligi va chuqur falsafiy mazmundorligi bilan tomoshabinlarni yillar davomida maftun qilib kelgan. Isohor Oqilov sahnalashtirgan raqs borgan sari yangidan -yangi uslublar bilan boyidi va hamisha tomoshabinlarning hurmat va e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Isohor Oqilov ko'p yillik samarali va fidoiy mehnatlari davomida O'zbekiston, Tojikiston va boshqa qardosh respublikalar raqs san'ati sohasida faoliyat olib borayotgan ko'plab san'atkorlarga ta'lim berdi. Bular: M.Zohidova, G.Izmaylova, B.Qoriyeva, G.Mamayeva, K.Yusupova Q.Mirkarimova, H.Komilova, D.Jabbarova, V.Oqilova, R.Nizomova, T.Yunusova va Q.Do'stmuhammedovalardir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbek milliy raqs san'ati ko'p asrli tarix va boy an'analarga ega. Asrlar davomida o'zbek xalqi yaratgan raqs bebaho nomoddiy madaniy meros bo'lib qoldi. O'zbek raqs san'ati namoyondalari yaratgan ajoyib raqs asrlar davomida yoshlarimizni vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, go'zallik ruhida tarbiyalab kelmoqda deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova "Xareografiya va Raqs san'ati asoslari". Toshkent -2015.
2. N.E. Abraykulova "Raqs". Toshkent "Turon-Istiqbol" 2018.
3. M.Muxamedova "Jahon va O'zbek xareografiya san'ati tarixi". Toshkent -2021. "Fan ziyosi" nashriyoti 143-147-154 betlar
4. Jalilova Sh.Sh. "O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti" Toshkent-2020,

5. O'.Muhamedova. "O'zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti" darslik. T; "Navro'z nashriyoti", 2020
6. [FOLKLOR VA XORAZM FOLKLOR RAQSLARI | World scientific research journal \(wsrjournal.com\)](#)
7. [O'zbek mumtoz musiqasi \(classicmusic.uz\)](#)